

ALISHER NAVOIYNING SHARQ TAZKIRACHILIGIDAGI O'RNI**Mahmudova J.O'.****Farg'ona davlat universiteti****Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi 2-bosqich talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.20051638>**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiyning Sharq tazkirachiligi rivojida o'rni, uning tazkira janriga qo'shgan hissasi hamda bu boradagi ilmiy merosi tahlil qilinadi. Xususan, Navoiyning “Majolis un-nafois” asari misolida tazkirachilik an'alarining yangi bosqichga ko'tarilishi, adiblar hayoti va ijodini yoritishdagi uslubi, badiiy va ilmiy yondashuvi ochib beriladi. Maqolada shoirning tazkira yaratishdagi o'ziga xos uslubi, adabiy muhitni aks ettirishdagi mahorati hamda uning keyingi davr tazkirachiligiga ko'rsatgan ta'siri ilmiy asosda bayon etiladi. Shuningdek, Navoiy merosining Sharq adabiy an'alaridagi ahamiyati va bugungi navoiyshunoslikdagi dolzarbligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, tazkirachilik, Sharq adabiyoti, Majolis un-nafois, adabiy muhit, shoirlar tarjimai holi, badiiy-estetik qarashlar, adabiy meros, mumtoz adabiyot, navoiyshunoslik

Sharq mumtoz adabiyotida keng tarqalgan janrlardan biri — tazkira janridir. “Tazkira” so'zi arab tilidan olingan bo'lib, “eslash”, “yodga olish”, “zikir etish” ma'nolarini anglatadi. Adabiy termin sifatida esa tazkira — shoir va adiblarning hayoti hamda ijodi haqida ma'lumot beruvchi, ularning asarlaridan namunalar keltiruvchi tarixiy-adabiy asar hisoblanadi. Ushbu janr orqali muayyan davr adabiy muhiti, ijodkorlar o'rtasidagi munosabatlar va badiiy-estetik qarashlar haqida muhim ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Tazkirachilik an'analari dastlab arab va fors adabiyotida shakllanib, keyinchalik butun Sharq adabiyotiga keng yoyildi. Ayniqsa, fors-tojik adabiyotida bu janr yuqori darajada rivoj topib, ko'plab yirik tazkiralari yaratildi. Bu jarayon turkiy adabiyotga ham o'z ta'sirini o'tkazib, natijada turkiy tazkirachilik maktabi shakllandi. Tazkiralari nafaqat biografik ma'lumotlar to'plami, balki muayyan davrning adabiy-estetik mezonlarini aks ettiruvchi muhim manba sifatida qadrlanadi. Sharq tazkirachiligi rivojida Alisher Navoiy alohida o'rin egallaydi. Uning “Majolis un-nafois” asari turkiy tazkirachilikning mukammal namunasi sifatida e'tirof etiladi. Navoiy ushbu asari orqali nafaqat o'z davridagi ijodkorlar haqida muhim ma'lumotlar bergan, balki tazkira janrini yangi bosqichga olib chiqib, unga badiiylik va ilmiylik uyg'unligini olib kirgan.

Shu jihatdan, tazkira janri Sharq adabiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning rivojlanishida Navoiy ijodining o'rni beqiyosdir. Mazkur maqolada aynan shu masalalar ilmiy asosda yoritiladi.

Alisher Navoiy Sharq tazkirachiligi rivojida yangi bosqich yaratgan ijodkorlardan biri hisoblanadi. U tazkira janrini nafaqat biografik ma'lumotlar to'plami sifatida, balki adabiy-estetik qarashlar ifodasi darajasiga ko'tardi. Shoirning bu yo'nalishdagi eng muhim hissasi uning ikki yirik asari — “Majolis un-nafois” va “Nasoyim ul-muhabbat” orqali namoyon bo'ladi.

“Majolis un-nafois” asari turkiy tazkirachilik tarixida ilk mukammal namunalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu asarda Navoiy o'z davrida yashab ijod etgan shoir va adiblar haqida qimmatli ma'lumotlar keltiradi. Asar sakkiz majlis (bo'lim)dan iborat bo'lib, unda ijodkorlarning hayoti, ijodiy yo'li, adabiy merosi va o'zaro munosabatlari yoritilgan. Navoiy bu

tazkirada faqat ma’lumot berish bilan cheklanmay, balki har bir ijodkorning badiiy salohiyatiga adolatli va teran baho beradi. Shu jihati bilan asar oddiy biografik manba emas, balki adabiy-tanqidiy qarashlarni ham o’zida mujassam etgan yirik ilmiy-adabiy yodgorlikdir.

“Nasoyim ul-muhabbat” asari esa tasavvufiy tazkira bo’lib, unda avliyolar, so’fiylar va ruhiy komillikka erishgan shaxslar haqida ma’lumotlar beriladi. Bu asarda Navoiy insonning ma’naviy kamoloti, ruhiy poklik va ilohiy muhabbat g’oyalarini asosiy mezon sifatida ilgari suradi. Asar Sharq tasavvuf adabiyotining muhim manbalaridan biri bo’lib, unda nafaqat tarixiy shaxslar haqida ma’lumot, balki axloqiy-falsafiy qarashlar ham chuqur ifodalangan.

Alisher Navoiyning tazkirachilikka qo’shgan hissasi Sharq adabiyoti tarixida tub burilish yasagan muhim hodisalardan biri hisoblanadi. Uning “Majolis un-nafois” va “Nasoyim ul-muhabbat” asarlari orqali tazkira janri oddiy biografik ma’lumotlar to’plamidan yuksak adabiy-estetik va ma’naviy-falsafiy darajaga ko’tarildi. Bu asarlar Sharq tazkirachiligi tarixida yangi uslubiy maktabning shakllanishiga asos bo’ldi. Navoiy tazkirachilikda shoir va adiblarni tasvirlashda faqat ularning hayotiy ma’lumotlarini keltirish bilan cheklanmay, balki ularning ijodiy salohiyati, badiiy mahorati va ma’naviy dunyosini chuqur tahlil qilish usulini joriy etdi. Bu yondashuv tazkira janrini ilmiy-adabiy tanqid yo’nalishiga yaqinlashtirdi va uni yanada mukammal shaklga olib chiqdi. Natijada, tazkira nafaqat tarixiy manba, balki adabiy baholash mezoniga ega bo’lgan muhim ilmiy janrga aylandi.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy asarlari Sharq adabiyotida ijodkorlarga nisbatan adolatli baho berish an’anasini mustahkamladi. U har bir shoirning ijodini betaraflik va adabiy mezonlar asosida tahlil qilib, tazkirachilikda subyektivlikdan ko’ra ilmiy va estetik yondashuvni ustun qo’ydi. Bu esa keyingi davr tazkirachilari uchun muhim metodologik asos bo’lib xizmat qildi. Navoiy yaratgan tazkira maktabi nafaqat turkiy adabiyot, balki butun Sharq tazkirachiligi rivojiga kuchli ta’sir ko’rsatdi. Uning asarlarida aks etgan adabiy muhit, ijodkorlar o’rtasidagi munosabatlar va badiiy qarashlar keyingi asr tazkiralari namuna bo’lib qoldi. Shu jihatdan Alisher Navoiy Sharq tazkirachiligini yuksak bosqichga olib chiqqan, uni ilmiy va badiiy jihatdan mukammallashtirgan buyuk siymo sifatida e’tirof etiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Alisher Navoiy. Majolis un-nafois. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi nashriyot, 1985.
2. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2001.
3. Alisher Navoiy. Xamsa. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1991.
4. Abdurauf Fitrat. O’zbek adabiyoti namunalari. – Toshkent, 1928.
5. Izzat Sulton. Navoiy ijodi. – Toshkent: Fan, 1970.
6. Natan Mallayev. O’zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O’qituvchi, 1976.
7. Yevgeniy Bertels. Alisher Navoiy. – Moskva: Nauka, 1965.
8. Sadriddin Ayniy. Alisher Navoiy va uning davri. – Dushanbe, 1958.
9. Hamid Sulaymon. Navoiy va Sharq adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1983.
10. Erkin Vohidov. So’z san’ati haqida mulohazalar. – Toshkent, 1990.